

Nosirov Sherzod O'ktam o'g'li  
Buxoro davlat universiteti  
tayanch doktoranti  
[s.u.nosirov@buxdu.uz](mailto:s.u.nosirov@buxdu.uz)

## BUXORO AMIRLIGIDA TO'Y VA MAROSIMLAR O'TKAZILISHIGA DOIR JADID MATBUOTIDAGI MULOHAZALAR

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Buxoro amirligida XX asr boshlaridagi to'y va turli marosimlarning o'tkazilishi va ularga yo'l qo'yiladigan isrofgarchiliklar va dabdababozliklarning Turkiston va Buxoro jadid matbuotida yoritilishi bilan bog'liq mulohazalar tahlil etilgan va Turkiston general-gubernatorligi shaharlari bilan qiyosiy solishtirilgan. To'y va marosimlardagi dabdababozlik ortidan paydo bo'ladigan jamiyatdagi salbiy holatlar to'g'risidagi matbuotda yoritilgan fikr mulohazalar o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** to'y, marosim, Buxoro, matbuot, Amir Olimxon, maqola, gazeta, jurnal, "Oyina", xabar, farmon, dabdababozlik, maktub.

### КОММЕНТАРИИ ИЗ ПРЕССЫ О ПРОВЕДЕНИИ СВАДЕБ И ЦЕРЕМОНИЙ В ЭМИРАТЕ БУХАРА

**Аннотация.** В данной статье анализируются соображения, связанные с освещением свадеб и различных церемоний в Бухарском эмирате в начале XX века, а также расточительность и помпезность, допускаемые в них в современной прессе Туркестана и Бухары, и проводится сравнение с городами Туркестанской генеральной губернии. Изучаются мнения и соображения, освещаемые в прессе, о негативных последствиях для общества, возникающих после пышных свадеб и церемоний.

**Ключевые слова:** свадьба, церемония, Бухара, пресса, Amir Olimkhan, статья, газета, журнал, «Oyina», репортаж, указ, помпезность, письмо.

### COMMENTS FROM THE CURRENT PRESS ABOUT THE HOLDING OF WEDDING AND CEREMONIES IN THE BUKHARA EMIRATE

**Annotation.** This article analyzes the considerations related to the coverage of weddings and various ceremonies in the Bukhara Emirate at the beginning of the 20th century and the extravagance and pomp allowed in them in the modern press of Turkestan and Bukhara, and compares them with the cities of the Turkestan General Governorate. The opinions and considerations covered in the press about the negative situations in society that arise after the pomp at weddings and ceremonies are studied.

**Keywords:** wedding, ceremony, Bukhara, press, Amir Olimkhan, article, newspaper, magazine, "Oyina", report, decree, pomp, letter.

Buxoro amirligi aholisi hayotida to'ylar va turli dabdabali marosimlar o'tkazilib turilgan bo'lib, bular oddiy aholi hayotini qiyinlashtiradigan darajada edi. Turli tarixiy manbalar qatorida Turkiston va Buxoro amirligi hududlaridagi "Buxoroyi sharif", "Turon", "Sadoyi Turkiston" gazetalari va "Oyina" jurnali kabi jadidlarning matbuot nashrlarida Buxoro aholisi o'rtasida to'y va turli marosimlarni o'tkazish bilan bog'liq jarayonlar tasvirlangan. Matbuot sahifalaridagi ma'lumotlardan anglash mumkinki, XX asr boshlarida Turkiston va Buxoro jadidlarining aholining iqtisodiy ahvolini yomonlashtiradigan, ularni ilm-fan va madaniyatdan uzoqlashtiradigan ushbu dabdababozlikka qarshi fikrlari matbuot sahifalaridan doimiy o'rin olib borgan. Buxoro amirligi va Turkistonning boshqa hududlarida ijtimoiy an'ana va qadriyat sifatida ko'rilgan to'y va marosimlar hukumat tomonidan nazorat qilinishiga qaramasdan, jamiyatning

o'zini o'zi boshqarish xususiyatidan kelib chiqib o'z holicha qolavergani ushbu masalaga doir mulohazlarni vujudga keltirgan. Matbuotdagi xabarlar va maqolalarda berilgan tanqidiy fikrlar ushbu holatning ijobiy tomonga o'zgarishiga turtki bo'lgan desak adashmaymiz.

Taxtga o'tirgan so'nggi amir Sayyid Olimxon dastlabki islohotlarni aynan aholi uchun manfaatli farmonlar chiqarishdan boshlaydi. 1911-yilda "Juda isrofli to'ylarni tugatish to'g'risida" farmon chiqaradi. Farmonga muvofiq, to'ylardan palovdan boshqa ovqat berganlik uchun 75 darra urish jazosi, to'ylarda ko'pkari o'tkazganlik uchun o'lim jazosi belgilanib, to'yga kelgan mehmonlarga chopon berish an'anasi taqiqlangandi. Ushbu farmon butun Turkistonda yaxshi kutib olingan edi. Matbuotda esa, jadidlar va jamiyatning boshqa faol a'zolari tomonidan Buxoro va Turkistonning boshqa hududlaridagi to'ylar to'g'risida bir qator maqola va xabarlar e'lon qilinib, aholining bunday o'zgarishlarga munosabati tahlil qilinadi. Jumladan, "Oyina" jurnalida ushbu masalaga oid maqola va xabarlar ko'pchilikni tashkil qiladi. Jumladan, "Oyina" jurnalining 1913-yilgi 6-sonida Buxoro amirining to'ylarni tartibga solish masalasidagi farmoni amirlar, boylar va karvonboshi Hoji Abduraufbiy karvonboshi Azizov (*Ushbu shaxs 1911-yilda Amir Sayyid Olimxon bilan mahalliy savdogarlar nomidan uchrashadi va islohotlar borasida fikrlarini aytadi. Ular orasida to'ylarni tartibga solish masalasi ham bor edi*) xohishlari bilan amalga oshirilganligi qayd etilgan. Maqolada keltirilishicha, farmondan 2 yil o'tgach to'ylarda yana dabdababozlik ko'payadi. Qori Ahmad tarakachi (*Buxoro amirligida me'ros taqsimi bilan shug'ullanuvchi amaldor*) degan davlat ma'muri bir hafta to'y berib, qand tarqatib, 5-6 xil taom beradi. Toshkentdan juvonlar va bachalar (*to'y va bayramlarda raqs tushuvchi yosh o'g'il bolalar*) olib kelib bazm uyushtiradi, ularga yo'l haqidan tashqari 3 so'm pul va 6 ta katta to'n beradi. Juvonlar to'yga kelgan tomoshabinlardan 1000 so'mga yaqin pul yig'adi. Buni ko'rgan choy savdosi bilan shug'ullanadigan dallol 8 kun to'y beradi. Yana boshqa bir shaxs esa, to'yiga Toshkentdan juvonlarni olib kelib bazm qiladi. Natijada Buxoroda kim o'zarga to'ylar o'tkazish qayta boshlanadi, ularda juda katta isrofgarchiliklarga yo'l qo'yiladi. Maqolada aynan isrofgarchiliklar va tomoshalarda juvonlar va bachalarning ishtiroki tanqid qilinadi. Shuningdek, "Oyina" jurnaliga Sherobodan maktub yuborgan Mirzo Rahmatjon ismli shaxs Buxorodagi isrofli to'ylarni tashkil qilganlar haqida fikr bildirilib, "... isrof qilg'uvchilar har qancha qilsalar o'zlarig'a jabr qiladurlar" – deya ularni kamchiqimlikka chaqiriladi.

Buxoroda sodir bo'lib turgan bunday isrofli to'ylarning Turkistonning boshqa hududlarida ham mavjudligi xususida matbuotda ma'lumotlar uchraydi. Xususan, matbuotda ijtimoiy-iqtisodiy masalalar yuzasidan bir necha bor o'z fikrlari bilan chiqish qilib turgan "Musofir" taxallusi shaxs "Oyina" jurnaliga "Ho'qanddan maktub" nomi ostida yuborgan maktubida Qo'qonda kalapo'sh (*do'ppi*) bozoridagi bir savdogarning to'yi xususida ma'lumot bergan. U Buxorodagi kabi isrofli to'ylar Qoqonda ham mavjud bo'lib, bu yerdagi yangicha odatning ortiqcha isrof ekanligini va bu odatdan hayratga tushganligini yozadi. Maqolada keltirilgan odat bo'yicha nikoh to'yidan keyin kelin 3-4 kundan to bir ikki oygacha o'z hovlisida turgan. Keyinchalik kuyov kelinni o'z hovlisiga olib kelganda yana ayollar va erkaklar yig'ilib, bazm qilishadi. Shuningdek, muallif to'ydagi raqqosalarning mehmonlarga choy uzatib ulardan pul olganligi va bunga qozi, a'lam, mudarris, imomlarning jim qarab turishlarini tanqid qilgan.

"Oyina" jurnalida 1914-yilda berilgan xabarga ko'ra, to'y va bazmlarlardagi isrofgarchilikni kamaytirish maqsadida Buxoro qo'shbegisi Buxoro amirligi hududidan Samarqand va Toshkent juvonlarini chiqartirib yuborish bo'yicha buyruq bergan. Ammo bu buyruqqa hamma ham itoat etmagan. Jumladan, buyruqdan so'ngra ham Chorjo'y qozisi to'yida Toshkent juvonlarini keltirib bazm uyushtirgan.

Ushbu dabdababozlik ortidan paydo bo'ladigan jamiyatdagi ijtimoiy xavflar yuzasidan "Buxoroyi sharif" gazetasi o'z sahifalarida tanqidiy materiallar e'lon qiladi. Chunonchi, gazetada Buxoro amirligi aholisining demografiyasining sekin o'sishiga turli urushlar, epidemiyalar emas, balki, tug'ulishning kamayganligi sabab qilib ko'rsatilgan va to'y qilishning qiyinligi yangi nihoklarning amalga oshmayotganligining omili sifatida qayd etilgan. To'y qilish sarf-xarajatlarining va mahr pulining yuqoriligi faqatgini ayrim toifalarning nikohlari amalga oshishi bilan cheklanishga olib kelgan. Bundan holat to'y qilishga qurbi yetmaganlarning umr bo'yi

34 uylanmasdan o'tishlariga va eng yomoni ularning nafslarini qondirish uchun buzuq yo'llarga kirishlariga olib kelgan. Ushbu holatning jamiyatga yomon ta'sir o'tkazayotganligi sababli mahr va to'y xarajatlarini qisqartirish masalasi hukumat darajasida islohotga muhtojligi e'tirof etilgan.

Matbuotda to'y marosimi xususida ijobiy fiklar ham mavjud bo'lib, ulardan biri "Oyina" jurnalining 1914-yilgi 17-sonida beriladi. Unga ko'ra, Buxoroda "mullalar to'yi" (*Buxoro madrasalarida oddiy to'ylardan farqli ta'lim jarayoni bilan bog'liq bayram va bazmlar*) har yilgiga nisbatan oz va kamxarj o'tkazilgan. Mullalar orasida asosan "sinal-i islom" (*Madrasani tugatib mulla yoki ulamo unvonini olganda o'tkaziladigan marosim*) va "iftitoh va xatm" (*Qur'on o'qishni boshlash va tugatish bilan bog'liq marosim*) marosim, bazmlari (to'y) o'tkazilgan. Hatto Buxoro mudarrislaridan Eshon Olim va domla Do'st muftiylar talabalarining iqtisodiy holatlarini inobatga olgan holda ushbu marosimlarni o'tkazmaganlar. Bunday marosimlar Farg'onada ham mavjud bo'lib, "Sadoyi Turkiston" gazetasiga ko'ra, "Sadoyi Farg'ona" gazetasiga imtihonlarning ortiqcha sarf-xarajatsiz o'tkazilishini so'rab yuborilgan ochiq maktub sababli Qo'qondagi maktab imtihonlari oshsiz va to'nsiz o'tkazilgan.

Bundan tashqari, Toshkentda ham Tojiboy Eshmuhammedov degan shaxsning o'z farzandlari uchun yangi tartibda, to'yni, shaharning din olimlarini chaqirtirib, mavludi sharif o'qitib o'tkazganligi haqida "Oyina" jurnalida xabar beriladi. Bundan ko'rinadiki, to'ylardagi ortiqcha isrofgarchiliklar Buxoro amirligidan tashqari Turkistonning butun hududlarida diqqat markazida bo'lgan.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joziki, matbuot nashrlarida muhokama qilingan to'y va turli marosimlarda aholining ayrim toifalari tomonidan isrofgarchilik va dabdababozligi ortidan jamiyatda muvozanatsizlik, iqtisodiy va psixologik inqiroz kelib chiqqan. Ushbu holat nafaqat Buxoro amirligi balki Turkiston general-gubernatorligi hududlarida ham sodir bo'lgan bo'lib, unga qarshi hukumat doiralari olib borgan kurashi doimiy muvofaqiyatni ta'minlamagan. Turkiston va Buxoro jadidlari esa, ushbu holatda aholining yuqoridagi masalaga nisbatan qarashlarini to'g'ri yo'naltirish uchun matbuotdan foydalanganlar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Dilnoza Jamolova. Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri-XX asr boshlari). Monografiya. –T.: 2021.
2. Buxoroda to'ylar // "Oyina" jurnali, 1913-yil 30-noyabr. -№6
3. Mirzo Rahmatjon. Buxoro Sherobodidan maktub // "Oyina" jurnali, 1914-yil 16-fevral. -№17. 303-bet.
4. Musofir. Ho'qanddan maktub // "Oyina" jurnali, 1913-yil. -№7. 165-bet.
5. Buxoro xabarlari // "Oyina" jurnali, 1914-yil 1-mart. -№19. 358-bet.
6. Mim.Sin (M.S) Taraqqiyi kobanho // "Buxoroyi sharif" gazetasi, 1912-yil 28-may. -№66.
7. Buxoro xabarlari // "Oyina" jurnali, 1914-yil 16-fevral. -№17. 302-bet.
8. Ayn.Dol. Kim haqli? // "Sadoyi Turkiston" gazetasi, 1914-yil 9-sentabr. -№39.
9. Isrofsiz to'y // "Oyina" jurnali, 1914-yil. -№36. 863-bet.